

Xurshid Davron

- [SAYT XARITASI](#)
- [ENGLISH](#)
- [HA РУССКОМ](#)



[Bosh sahifa](#) > [Muborak kun](#) > Lev Gumilyov haqida ikki maqola.

01, 10, 2012 [Q](#)

Lev Gumilyov haqida ikki maqola.

70 tashrif



1 oktabr — buyuk olim Lev Gumilëvning 100 yilligi nishonlanadi.

Lev Gumilëv ikki taniqli rus shoiri — Nikolay Gumilëv bilan Anna Axmatova oilasida tugilgan. Nikolay Gumilëv 1921 yilda aksilinkilobiy isënni tayërlashda ayblanib, shëro tuzumi tomondan katl etilgan bëlsa, Anna Axmatova ming bir tavke laënat ostida yashasa-da uzoq umr kechirib, 77 ëshida - 1966 yilning 5 martida vafoet ëtgan.

Isënni ota va bëysunmas onaga bëlgan munosabat Lev Gumilëv hëti va faoliyatiga bevosita taësir kërsatdi. U dastlab 1938 yilning martidan 1943 yilning martigacha siësiy mahbuslar lagerida bëlди, кейинчалик 1950 yilda 10 yilga ozodlikdan mahrum etilib, 1956 yilda Stalin shaxsini qoralagan XX sëzdidan кейин эркинликка чиқди. U butun umri davomida siësiy taëqib ostida yashadi. Ammo, ilmga bëlgan tashnaliq, айниқса, туркийлар тарихига bëlgan беқиёс қизиқиш (онаси томирида туркий қон bëlгани таëсирида bëlса керак), uzoq va mashaqqatli meënatu izlaniшлар Lev Gumilëv nomini dunë ilm aëli tomondan tan olingan bilimli tarixshunos timsoliga aylantirdi.

Lev Gumilëv inson va etnoslarнинг биологик ижтимоий мохияти хақидаги таëлимот asoschisi; u fanda birinchi bëlдиб этногенезнинг наслдан-насла ўтувчи asosiy энергетик белгиси passionarlik — биокимëвий қувват ортиши натижасида одамлардаги онгли биологик қобилиятларнинг ниҳоят даражада кучайиши foëсини илгари сурди. Ушбу foëга кëра, бундай жараёнларнинг намоён bëlдиши тарихий тараққийтга кучли таësir кëрсатади. Бу foë унинг 1979 yilda bir dona nusxada нашр etilgan «Этногенез ва Замин биосфераси» («Этногенез и биосфера Земли») asarida баён etiladi.

Лев Гумилёвнинг туркийлар тарихига оид изланишлари натижасида «История народа Хунну», «Хунну в Китае», «Древние тюрки», «Поиски вымышленного царства», «Древняя Русь и Великая степь», «Старобурятская живопись», «Открытие Хазарии», «Тысячелетие вокруг Каспия», «Черная легенда», «Синхрония», «Конец и вновь начало» китоблари ва сонсиз мақолалари пайдо бўлди.

Ёдимда: 80-йилларда биз ёш ўзбек зиёлилари кимдир Москвадан олиб келган «Этногенез ва Замин биосфераси» («Этногенез и биосфера Земли») асарининг литографик нусхасини навбатда туриб ўқиб чиққан эдик. Бу китоб мутолааси катта билим доирасини талаб қилса-да, уни тўла тушунмасак-да, китобда келтирилган туркийлар ҳақидаги тарихий далиллар ва воқеалар бизни ҳаяжонга соларди. Айниқса, «Древние тюрки» китобини ойлаб, йиллаб китоб бозорларидан кидириб, уни ҳар қандай нарҳда сотиб олишга тайёр эдик.

Мана, ниҳоят, беш йилча аввал Лев Гумилевнинг «Қадимги туркийлар» тарихий меҳнати (Таржимон — Бахтиёр Исабеков) ўзбек тилида чоп этилди. Ишончимиз комилки, унинг бошқа асарлари ҳам ўзбек тилида нашр этилажак. Бу бизнинг масъулиятимиз ва истагимизга боғлиқ.

Бугун мустақиллик туфайли ўз халқимиз тарихини чуқурроқ ўрганиб, билиб бораётибмиз. Олдингидек фақат рус эмас, жаҳон олимларининг китобларини ҳам мутолаа қилиб, тадқиқ этияётибмиз. Мана шу ўзлимизни идрок этишда буюк рус тарихчисининг ҳиссаси беқиёсдир, десак хато қилмаймиз.

Тўғри, олимнинг ҳамма ғоялари тўғри ёки бизга маъқул эмасдир. Аммо, унинг асарлари диққатимиз ва меҳримизга сазовор бўлганини тан олмасдан иложимиз йўқ.

Хуршид Даврон



Набижон Боқий

НИДОЛАРДАН ЯРАЛГАН ТАРИХ

Шоираи замонимиз Анна Андреевна Ахматова тарихий фожиаларни акс эттирган шеърларидан бирида: «Эрим гўрда, ўғлим турмада — менга дуо беринг», деб илтижо қилган эди. Чунки шоиранинг фақат гўзал ҳис-туйғулари эмас, балки нозик вужуди ҳам зўравон замоннинг пошналари остида аёвсиз топталади: эри Николай Гумилёвни 1921 йилда большевиклар отиб ташлайди, ўғли эса...

Левушка (арслон боласи) 1912 йилнинг 1 октябрь куни туғилади. Онаси Анна эндигина 23 ёшга тўлган эди. Тақдир ҳазилини қарангки, Лев 23 ёшга тўлганда уни большевиклар авахтага ташлайди. 1935 йилнинг 22 октябрь куни Ленинград Давлат университетининг тарих факультетида таҳсил кўраётган Лев Гумилёв «аксилшўравий террорчилар гуруҳининг аъзоси» сифатида ҳибсга олинади. Мислсиз азоб-уқубатлардан сўнг Анна Ахматова Сталинга хат киритишга эришади ва «дохийнинг меҳр-шафқати» билан 1935 йилнинг 4 ноябрь куни Лев қамоқдан озод бўлади.

1938 йилнинг 10 март куни эса Лев Гумилёв гўёки «ЛДУдаги ёшларнинг аксилшўравий ташкилотига аъзо бўлгани учун» иккинчи марта қамалади. Ленинград ҳарбий округи трибуналининг қарорига мувофиқ Лев Николаевич ўн йил муддатга озодликдан маҳрум этилади. Аммо, «адолатпарварлик»ни кўрингки, 1938 йилнинг 17 ноябрь куни СССР Олий судининг ҳарбий хайъати ўша ҳукми бекор қилиб, жиноий ишни қайта терговга жўнатади. 1939 йилнинг февраль-май ойларида бўлган қайта тергов жараёнида Лев Гумилёв айбдор эканини муглақо бўйнига олмайди, терговчилар эса унинг айбини исботлай олмайди, гўё «инқилобий вазият» вужудга келади. Шундай бўлса-да, НКВД ҳузуридаги махсус кенгаш қарорига биноан Лев Гумилёв беш йил муддатга озодликдан бенасиб қилинади.

Лев Гумилёв сургундан тўппа-тўғри Иккинчи жаҳон урушининг қайноқ жабҳасига жўнаб кетади. Урушда ўзини кўрсатади, бир неча марта тақдирланади.

Лекин... лекин Николай Гумилёвнинг ўғли бўлиш, Анна Ахматованинг ўғли бўлиш ниҳоятда оғир эди...

1949 йилнинг 6 ноябрь куни (атайлаб байрамдан бир кун аввал!) терговчи майин-майин кекирибгина Анна Ахматованинг хонадонига ташриф буюради ва: «Мадам, уйингизни тинтув қиламиз. Сўнгра ўғлингизни қамоққа олиб кетамиз», дейдию чарм папкасидан ордерни чиқариб кўрсатади. Тинтув бошланади. «Гражданка Ахматова»нинг шахсий буюмлари, латта-путталари обдан титқилаб кўрилади. Хўрланган, ҳақоратланган Анна Ахматованинг асаб торлари чирс-чирс узилади. Анави гўрсўхталар тилаб-тилаб олган ёлғизгина ўғлини олдиларига солиб ҳайдаб кетишгач, шоира жамики қўлёмаларини, ҳали эълон қилинмаган шеърларини, дostonларини битта қолдирмасдан ёқиб юборади. Рус адабиёти тарихида фақат Николай Гоголь «Ўлик жонлар» романининг қўлёмасини ёқиб юборган. Ахматова «ёнғин»и тарихда иккинчи ҳодиса (нақл қилишларича, қамоққа олиншидан салгина олдин Абдулҳамид Чўлпон ҳам қўлёмаларини ёқиб юборган экан). Адибларнинг қўлёмалардан бошқа яна қандай бойлиги борки, қурбон қилинса!

Лев Гумилёв бу гал ўн йил муддатга озодликдан маҳрум этилади.

«Дохий»нинг 70 йиллик юбилеи яқинлаша бошлайди. Тўқилибгина, абгоргина бўлиб қолган Анна Ахматовага «баъзи бир ўртоқлар дўстона» маслаҳат беради: «Илтимос, мадҳия ёзинг! Ахир, ўтмишда ҳам шоирлар подшолар номига қасидалар ёзган!» дейишиб, йўл-йўриқ кўрсатади... Ахматова умрида илк бора ижодий принципидан чекиниб, Сталинни мадҳ этиб иккита шеър ёзади (ўша шеърлари зудлик билан «Огонёк» журналида эълон қилинган туркумига

илакишиб дунё юзини кўради). Ўн-ўн беш йил мобайнида битта ҳам шеъри шўро матбуотида эълон қилинмаган Ахматованинг туркумлари «Огонёк» журналида кетма-кет потирлаб чиқиб кетганининг боиси, албатта, «ижтимоий заказ» жуда юқоридан тушганини англатади.

Бироқ, Сталин барибир Лев Гумилёвни озодликка чиқармайди.

Анна Ахматова қамокда ётган ўғлига посилкалар жўнатиб, хатлар ёзиб туради. Ажабланарли жойи шундаки, она-бола ўртасида ижодий алоқа ўрнатилди. Бунга кейинчалик сақланиб қолган биргина мактубни далил сифатида келтиришимиз мумкин. Хусусан, 1954 йилнинг 20 сентябрь куни Анна Ахматова фи-докор ўғлига бундай деб ёзган экан: «Хозир мутолаа қилаётганим Хитой шеърият анталогиясида яна-тагин хунларга дуч келиб қолдим. Бу ҳодиса энди эрамиз-нинг I асрида рўй берапти. Иккита хитой генерали хунлар томонидан асирга олинади ва 19 йил тут-қунлиқда сақланади. Биттаси Ватанига қайтиб кетади, бошқаси эса ўтмишини эслаб қўшиқ айтиб ўтиради. Ўша қўшиқ инглиз тилига таржима қилинган, қофияси йўқ. Билмадим, сенга илгари ҳам ёзганмидим-йўқми, Пекинда 1954 йили инглизча нашр қилинган Цуй Юаннинг китобини ўқиб чиқдим. Таржимони хитойлик экан. Мана, менинг насрийроқ таржимам:

Подшоҳимга хизмат қилиб,
Сахрони чангитиб юриб,
Хунларнинг додини бериб —
Мен ўн минг ли йўл босдим.

Ва ҳоказо. Анталогиядан ва таржима қораламасидан кўчирмалар олиб юбораётган хатларим сенга етиб бораптими? Эҳтимол, улардан сенга умуман фойда йўқдир?» (Анна Ахматова, Сочинения в двух томах, том 1, Москва, из-во «Правда», 1990 йил, 229-бет.)

Бошқа бир хатида эса: «Ўзингни асрагин, аччиқ чойдан ичмагин», деб илтимос қилади она. Ҳойнаҳой, «аччиқ чой» деганда аристонлар орасида тансиқ ҳисобланадиган «чифир» назарда тутилади. «Чифир» ҳам, «аччиқ чой» ҳам охир-оқибат юракни ишдан чиқаради (хатто отдек бақув-ват О. Балзак ҳам «аччиқ қаҳва»дан ўлади).

Қисқаси, Лев Гумилёв қамокда ётган вақтида ҳам умр китоби — «Қадимий турклар» учун қимматли маълумотлар тўплайди. Онаси ўғлининг қутлуғ ишида хамиша мадақдор бўлади.

... «Қадимий турклар» китобида Биринчи (Шарқий ва Гарбий) ҳамда Иккинчи турклар салтанатининг пайдо бўлиш зарурияти, тараққиёти, инқироз сабаблари ҳалол тадқиқ этилади. Муаллифнинг гувоҳлик беришича: «Бу китоб 1935 йилнинг 5 декабрь куни бошланган эди. Ўшандан бери бир неча марта қайта ишланди, тўлдирилди. Бироқ, қадимий турклар тарихига алоқадор жамики бой манбалар тўла-тўқис қамраб олинмади; барча муаммолар ёритилди деб бўлмайди. Шу боис бу йўлдаги изланишлар давом эттирилиши шарт» (Л. Гумилёв, «Қадимий турклар», 3-бет. Бундан кейин ушбу китобдан олинган далил-дастаклар «Қ.т.», фалон бет деб кўрсатилади).

Китоб дебчасида муаллиф «Бу китобни бизнинг биродарларимизга — Шўро Иттифоқидаги турк халқларига бағишлайман» деб қайд этади. Бағишлов ҳам, китоб қачон езила бошлангани тўғрисидаги таъкид ҳам чуқур чоғишгирма маънога эга. Тағматн — «нимкоса» теран анланса, муаллифнинг (дафъатан ғалати туюладиган) фикр-мулоҳазалари, позицияси тўғри талқин қилиниши мумкин.

«Қадимий турк халқларининг, улар барпо этган салтанатнинг тарихи дунё кечмиши силсиласида битта масалага бориб тақалади: ўз номларини авлодларига мерос қилиб қолдирмаган турклар нима учун пайдо бўлдилару нима учун йўқ бўлиб кетдилар?» («Қ. т», 4-бет.) Албатта, масаланинг бу тарзда қўйилиши илмий тадқиқот қамраб олган давр учун ҳеч қандай зарар етказмайди. Илмий тадқиқот доирасидан чиқилса, ҳайратланишимиз турган гап: хўш, қадимий турклар ўз номларини нима учун авл одлар и га (ўзбек-қозоқ-қирғиз-уйғур-қорақалпоқ-туркман...) мерос қилиб қолдирмаган экан? Ахир...

Дарров баҳс бошламасдан «нимкоса»га караш керак: бу китоб Лев Николаевич биринчи марта большевиклар зиндонида ётиб чиққач, роп-па-роса бир ойдан сўнг ёзила бошланган. Шу сабабли Лев Гумилёв «эзоп тили»ни илмий муомалага киритади: китобини «Шўро иттифоқидаги турк халқларига» бағишлайди-ю, аммо бир пайтлар буюк салтанат барпо этган қадимий турклар бошқа эди, ҳозиргилари бошқа — булар энди салтанат барпо қилишмайди, уларга шўро салтанати ҳам бўлаверади, дейди гўё.

Бироқ, китобда ёритилган 316 йиллик тарихий (юзлаб) мисоллардан маълум бўладики, қадимий турклар асло йўқолиб кетмайдилар. Тўғри, қудратли салтанатлар инқирозга юз тутади, лекин «туркют» (изоҳи кейинроқ берилади) бўлиб тарих саҳнасига чиқиб келган аждодларимиз гоҳ «турк», гоҳ «ўқ турк», гоҳ «ўн ўқ», гоҳ «тўққиз ўғуз», гоҳ «уйғур», гоҳ «қорлуқ», гоҳ «лақай», гоҳ «қипчоқ», гоҳ «қирғиз», гоҳ «ўзбек» номи билан дунёни титратаверадилар. Қадимий турклар самандар мисоли ўт-олов ичида туғилдилар ва ўт-олов ичра яшайдилар.

«Қадимий турклар инсоният тарихида улуг мавқега эга бўлсалар-да, лекин ўзлари сон жихатдан унчалик кўп эмасди. Уларнинг салтанати Хитой ва Эрон билан чегарадош бўлиб, бир-бирларига ўзаро таъсир ўтказардилар. Бу мамлакатларнинг тарихи чамбарчас боғланиб кетган. Демак, воқеалар даврийлигини ҳаққоний тиклаш учун хорижий мамлакатлар тарихини диққат марказидан қочирмаслигимиз лозим.

VI аср охирларида Турк қоғоноти ғарбда Византия (Рум), жанубда Эрон ва хатто Ҳиндистон, шарқда эса Хитой билан қўшни бўлган. Тадқиқотимиз учун мавзу қилиб олинган даврда номлари зикр қилинган мамлакатларнинг тарихий ришталари Турк қоғоноти тақдирига узвий боғланади.

Турк қоғонотининг барпо этилиши инсоният тарихида туб бурилиш ясади. VI асрдан эътиборан хитойликлар

Константинополь бозоридаги нарх-наволар билан ҳисоблашишга мажбур бўлдилар; румликлар эса Хитой императорининг хазинаси билан ҳисоблашишга мажбур бўлдилар. Турклар буюк салтанатлар ўртасида фақат воситачи бўлиб қолмадилар, айтилишича улар Хитой, Ҳиндистон, Эрон, Рум маданиятлари билан бемалол беллаша оладиган миллий қад-риятларини яратдилар. Қадимий туркларнинг қадриятлари бир тараф-у, лекин улар қурган жамият, ижтимоий устқурмалар, мансаб зина-поялари, ҳарб санъати, дипломатия, шунингдек, мамлакат манфаатига бўйсундирилган миллий мафкура тадқиқотчини кўпроқ ҳайратга солади» («Қ. т.», 415-бетлар).

Китобнинг биринчи қисми «арафа»дан (420-546 йиллар) бошланади. Арафа 126 йил давом этади. «Мамлакат даҳо фарзандларига жуда узоқ муддат ҳомиладор бўлади» (Белинский таъбири), дейдилар. Маълум бўлишича, дунё буюк салтанатга ҳам узоқ муддат ҳомиладор бўлар экан. Сиртдан қаралса, «арафа» хийла чўзилиб кет-гандек туюлади. Лекин V асрда Оврупода миллатлар ҳамон «кўчманчилик» қилиб юришганини эътиборга олсак борми, осийликлар улардан 100 йил илгарилаб кетгани равшан бўлади.

Арафа зое кетмайди. Жужон халқи арафада таркиб топади.

«Жужон халқи қандай пайдо бўлди деган масала аввал ҳам бир неча марта кўтарилган-у, аммо узил-кесил ечимини топгани йўқ. Бизнингча, масаланинг бу тарзда кўйилиши нотўғри. Аслида, «қандай — таркиб топди?» тарзида кўйилса, тўғри бўларди. Халқ бирдан пайдо бўлмайди, аста-секин шакл-шамойил касб этади. Жужонлар халқ бўлиб битта элатдан ўсиб чиққан эмас, ўзига хос равишда таркиб топган. Алғов-далғов замонларда йўлдан озган, ёмонотлик бўлиб қолган одамлар кўпайиб кетади. IV асрнинг ўрталарида ҳам ўшандай кимсалар анчагина эди. Улар Тобос хони қароргоҳида ёки хунларнинг пойтахтида кун кўролмасдан чўлу биёбонларга бош олиб кетадилар. Хўжайинларининг зулмидан зада бўлган хизматкорлар, ҳарбий хизматдан бўйин товлаган қочқорлар, талонга тушган кишлоқларнинг аҳолиси ҳам сахрога чекиниб жон сақлайдилар. Бундай кишиларнинг тили, дини, элати ҳар хил эди-ю, фақат қисмати битта эди. Ҳаммаси қашшоқликка маҳкум бўлиб, мана шу қашшоқлик уларни бирлаштириб турарди.

Хунларнинг отлик аскарлари сафида хизмат қилган Юкйўл деган кимса IV асрнинг 50-йилларида негадир ўлим жазосига ҳукм қилинади. Аммо у пайт пойлаб туриб тоққа қочади ва атрофига ўзига ўхшаган қочқорлардан юзтасини тўплайди. Улар бир илож қилиб кўчманчилар билан тил топишади. Сўнг баҳамжихат ҳаёт кечира бошлайдилар.

Юкйўлнинг вориси Кўйлук Тобос хони билан алоқа ўрнатади. Унга ўлпон (от, сувсар, сувмушук мўйнаси каои) тўлаб туради. Бора-бора Кўйлук ўрдаси Жужон номини олади. Ўрда қонун-қоидаси уруш эҳтиёжларига, талончиликка мос эди: қахрамонлик кўрсатган аскарга қўлга киритилган ўлжанинг катта қисми ҳадя қилинарди, кўрқок кимсалар эса ўласи қилиб таёқ билан саваланарди. 200 йиллик ўтган давр мобайнида жужонлар ўрдасида ҳеч қандай сезиларли таракқиёт бўлмайди. Мавжуд куч фақат талон-тарожликка сарфланарди» («Қ.т.», 11-12-бетлар).

545 йилда жужонлар туркютларни босиб олади. Туркютлар эса ябғу-йапу (унвон — Н. Б.) етакчилигида жужонларга қарши қўзғолон кўтарди. 552 йилда қўзғолон айти авж олган кезларда ябғу-йапу халок бўлади. Қора Иссиқхон ябғу-йапу тахтига чиқади ва 553 йилда жужонларни тормор қилади. Афсуски, ўзи ҳам қурбон бўлади. Оғасининг ўрнини эгаллаган Муғонхон 553 йилдаёқ жужонларнинг қолган-қутганини туркютлар ватанидан ҳайдаб солади... Шу тарзда туркютлар дунё тарихи сахнасида ғолибона кириб борадилар. Ўша йиллари Буюк турк қоғонотига асос қўйилади.



*Абдуқайом Айритомий,
Бахтиёр Ўрдабекли*

ХАЛҚИМИЗНИНГ ҚАДИМ ТАРИХИ Л.Н. ГУМИЛЁВ ТАЛҚИНИДА

Л.Н.Гумилёвнинг «Қадимги турклар» асари XX асрнинг иккинчи ярмида, яъни турки қавмлар тарихига Европада кизиқиш тўлқини ҳали ўз эпкинини мутлақо йўқотиб бўлмаган бир чоғда дунё юзини кўрди. Бугун XIX юзйиллик давомида турки халқлар тарихи турки олимлар иштирокида ўрганилган, бу халқлар вакиллари ўз тарихини илмий ёритиш майдонидан йироқда бўлганлиги боис ҳам Оврупо ва рус тарих фани ходимлари уни ўзларининг шарқ тарихини билиш савияси даражасида ҳамда ўз сиёсий-ижтимоий қарашларига уйғун тарзда очиб беришлари табиий эди. XX юзйилликда тарих илмининг турки халқлар ўтмиши майдонига усмонли турк ва татар олимлари ҳам кириб кела бошладиларки, улар аввалгилардан фарқ қилиб, турки тарихга, табиийки, она тарих сифатида ёндоша бошладилар. Энди булар олдингиларидан фарқ қилиб, мазкур тарихга узоқдан, совуқ илмий таҳлил муддаосидан ёхуд ўз миллатининг сиёсий-ижтимоий манфаатидан келиб чиқиб эмас, балки ўзининг кечмишига илмий кўз билан қарамоқзаруратида ва иштиёқида эдилар.

Бу борада ўз халқининг келиб чиқиш жиҳатидан угор-турк бирлигига боғлаган моҳар (унгар-венгер) олими Ҳерман Вамбери алоҳида ўрин тутади. Афсуски, XIX аср охири ва XX юз йиллик бошларининг жуда кўп рус ва рус-совет олимлари каби Л.Н.Гумилев ҳам Вамберининг илмий ишларини четлаб ўтади. Бу ҳолат Л.Гумилевнинг ҳамма замонларнинг улуғ шарқшуносларидан ҳисобланмиш В.В.Бартолднинг илмий қарашларига ҳам эътиборсизлиги, аниқроғи, бироз менсимаслик қайфияти билан бирга, Басим Аталай, Заки Валидий илмий асарларига мутлақо эътибор бермаслик каби илмий йўлни танлашига олиб келди. В.Бартолд қадимги турк тарихини бошқа ижтимоий фанлардан ажралган ҳолда ўрганиш мумкин эмас деб ҳисоблаган, хусусан, тарихчи айти чоғда яхшигина филолог-полиглот бўлишини талаб этган бўлса, Л.Гумилев ўз устози Г.Е.Грум-Гржимайло билан биргаликда тарихий географияни,

тарихни, хусусан турк тарихини тиклашда етарли ёндош соҳа сифатида қабул қиладилар. Л.Гумилевнинг бу борадаги фикри кўлингиздаги китобнинг «Умумий ишлар методикаси» бўлимидаги «XIX аср охирида тўрт тилда бир-бирига зид кўплаб илмий адабиётлар яратилди, бу асарлар бошловчи тадқиқотчилар қўлига етиши ва уларни идрок этиши кийин эди... Табиийки, бошловчи тарихчи турклар ҳақида ёзилган барча китобларни ўқиб чиқа олмайди. Унинг олдида ягона йўл бор — мавзунини торайтириш...» дейилган гапларида ҳам акс этади. Яъни филологик маълумот зарурлиги инкор этилгач, умуман мавзуга оид барча илмий адабиётларни ўрганиш зарурати ҳам чекланади.

Филологик манбаларга эътиборсизлик натижаси бўлса керакки, Л.Гумилев ҳам ўша замонларда, ҳатто ҳозирда ҳам кенг тарқалган «Ашина» сўзи «бўри» деган маънони ифода этувчи мўғул сўзи бўлиб, мўғулча кўриниши «шане/чино»дир, «А» эса хитойча ҳурматни ифода этувчи олд қўшимчадир» деган фаразни ҳеч иккиланмай қабул қилади. Бир тилдаги сўзга иккинчи тилдаги грамматик шакл қўшилиб янги шакл ҳосил қилиши учун ўша шакл ҳосил қилинган тил муҳитида жуда бўлмаганда, аҳолининг катта қисми иккитилли бўлиши зарурлигини эътибордан соқит қилади ҳамда бу факт унинг турк давлат қурилиши заминидан мўғул қабилалари туради, деган қарашига уйғун бўлганлиги учун ҳам бундай қарашни дадил олға суради ва «Ашина»нинг маъноси «олийжаноб бўри» деб беради. Аслида, хитой манбаларидаги «Ашина» сўзини турки салтанат бўлмиш Кушан давлати номи билан, яъни «Кушан» энг қадимги турки «бўри» тушунчасини ифода этувчи сўз билан боғлаб тушунтириш илмий жиҳатдан асосли кўринади (бу сўз билан бир ўзакдош бўлган «қашқир» сўзи ҳали кўпгина турки тилларда сақланиб келмоқда). Л.Гумилев турки тарихни мўғуллаштиришда давом этиб, хитой манбаларида «Ашина хонлари қўл остидагиларни ифода этиш учун ишлатилган «ту-кю»сўзида «туркут» сўзини кўради ва ундаги-ут қўшимчасини эса, мўғулча кўплик қўшимчаси, деб ишонади ва ишонтиришга уринади. Ҳатто, қадимги турк тилида барча сиёсий атамалар мўғул тилидаги кўплик қўшимчаси билан ясалган, деган исботланмаган қоидани ўртага ташлайди. Туркут сўзи таркибидаги-т(-у/т)ни қатъий туриб, мўғул тили қўшимчаси дейиш билан Л. Гумилев В.Бартолднинг унинг илмий ишларидаги хатолар заминини тўғри кўрсатганини исбот ҳам қилиб қўйган эди. Яъни Гумилев ўз замонасида эълон этилган В.В.Радловнинг «Турки лаҳжалар луғати тузиш тажрибалари («кейинроқ «Қадимги турк луғати» номи билан ҳам нашр этилган)дан беҳабарлигини кўрсатиб қўйди. Ўша луғатда -т қўшимчаси қадимги турки тилда мавҳум тушунчали от ясаши айтилган ва бунга мисоллар ҳам берилган. Бунинг устига агар Л.Гумилевда филологик маълумот етарли бўлганида турки тилларда этнонимлар кўплик қўшимчаси билан ясалмаслигини, чунки бу тилда этноним жамловчи маънога эга эканлигини пайқаган бўлар эди. Ҳозирги турки тилларда учрайдиган ўзбеклар, козоқлар, руслар каби форма ясалиши ҳам турки тилларга хинд-европа тиллари таъсири натижасидир. Ҳатто ҳозир ҳам «ўзбеклар бунақа бўлмайди»дан кўра «ўзбек бунақа бўлмайди» туркироқдир. Демак, «туркут» шакли мавжуд бўлганида ҳам ундаги -т(-ут) мўғулча кўплик қўшимчаси эмас, балки «бошқирд» этнонимидан қаби мавжуд этнонимга қўшилган ҳолда умумлашма маъно бериши мумкин. Мўғул тилларида эса,-т этноним ясаши мавжуд бўлган тил ҳодисасидир: ойрот, кераит, тангут, тайчжиут каби. «Туркут» сўзида этноним -к воситасида ясалгани эса ўша пайтлардаёқ исбот этилган бўлиб, кўлингиздаги китобда Л. Гумилевнинг ўзи буни тан олади.

Тарихан ўзидан ҳужжатлар қолдирган дастлабки турки давлат бўлмиш Турк ҳоконликларини ва унинг асосий бунёдкори туркилар билан илк турки халқ ва давлат бўлмиш хунлар ва уларнинг императорлиги орасидаги боғланишни ҳам йўққа чиқаради: «Турклар ўз тарихини оламнинг бошланишидан ҳисобласалар-да, уларнинг дунёқарашидан келиб чиқилса, бу дунё унча қадимий эмас. Оламнинг ибтидоси VI аср бошларидир. Турклар ўз аجدодлари хунлар ҳақида ҳеч нарса билмас эдилар.» Бу фикр жуда асоссиз бўлмаса ҳам, унда турклар ўз ўтмишидан мутлақо узилган бир қавм сифатида намоён этилади. Бу фараз тўлалигича Ўрхўн битиклари матнига таянганлиги учун, матн эса оламнинг яралиши ёки туркларнинг тарихига эмас, балки бир турки сулола тарихига бағишлангани учун бундай кескин хулосага ишонинг келмайди. Хитойча матнда турклар хунларнинг авлоди эканлиги қайд этилган экан, демак лоақал хитой маданияти асосида таълим олганлар ёхуд хитойча матнни ўқий оладиган оддий турк хунлар ҳақида қандайдир маълумотга эга бўлган, деган ишончга асос бор бўлади, матнда эса, буни акс эттириш учун эҳтиёж бўлмаган бўлса керак. Бизнингча, бу ўринда бошқа бир ноаниқлик ҳам борга ўхшайди, яъни хитойлар «хун» деб атаган аждодларимизни ўша замондаги турклар ҳам хун деб атаганмиканлар?!

Гап буюк туркчи олим Л.Н.Гумилевнинг, бизнинг назаримизда, турки тарихни ўрганишда турк филологиясига эътиборсизлиги натижасида йўл қўйган айрим камчиликлари ҳақида кетаётган экан, унинг «яда» тоши ва у билан боғлиқ бўлган фикрини ҳам четлаб ўтиб бўлмайди. «ЙАДУ» сўзининг ўзи форс тилидан ўзлаштирилгандир. Гарчи Эронда «шаман» сўзи номаълум бўлмаса ҳам, Фирдавсий турк сеҳргарини айнан ўша сўз билан атайди.»

Аввало, йадасўзини ҳеч иккиланмай форс сўзи дейиш, бу сўз ва ушбу сўз ифода этадиган диний амал тарихларини атрофлича ўрганилмай хулоса чиқаришга олиб келинган. Форс тилида бу сўз бошқа форсий сўзлар билан боғланиши мутлақо мумкин бўлмагани ҳолда, «Девону луғатит турку»да ўқиймиз: «ЙАТ»-ёмир ва шамол келтириш учун тошлар билан қилинадиган фусунгарлик». Шунинг билан бирга турки тилда «йа»-ўзагидан таркаган ва маъноси йада сўзига уйғун бўлган бирмунча сўзлар борки, улар бу сўз турки эканлигини тасдиқлаб туради. Жумладан, мазкур луғатда йатлади сўзи афсун ўқиш маъносига эга эканлиги қайд этилган. Йатлатти эса «фол очтирди» маъносига эгалиги айтилади. Давомида йатчи сўзи келтирилиб, унинг «афсун ўқийдиган киши» маъносини ифода этиши тасдиқланади. Ўзбек тилида учрайдиган «ётиғи билан тушунтир» иборасидаги ётиқ» ҳам ушбу сирага келиб қўшилади. Бундан ташқари, табиат жисмларини илоҳийлаштириш эронларга нисбатан кўпроқ туркиларга хосдир. Форс манбалари ҳам бир овоздан яда тоши га унинг воситасида бажаршадиган даний тадбирлар тўлалигича туркларга хос деб ҳисоблайдилар. Умуман, «битию»ни хитой тилидан (В.В.Радлов каби тил билимдони турки тилда бити-фёъл ўзаги бор

бўлишига ҳам қарамай, бу «маданий сўз» хитойчадан ўзлашган бўлишини ўтказмоқчи бўлган), ҳўкиз —»маданий сўзи»ни форс тилидан, сават сўзини ҳам турки тилда сап- «бириктирмоқ», тўкимоқ» феъл туркумли сўзи бўлишига қарамай, форс тилидан ўзлаштирилган деб ҳисоблашлари турки «маданий сўз»ларнинг барчаси бошқа тиллардан қабул қилинган, деган ногўғри ва ғайри илмий қараш таъсиридан бошқа нарса эмас эди.

«Қадимги турклар» китобини ўқишда эҳтиёт бўлиб ёндошиш лозим бўлган ғоялардан бири бу «қадимги турклар сон жиҳатидан жуда кам бўлиб, ўз номларини бевосита авлодлари бўлмаган кўпгина қавмларга қолдирди» деган фикрдир. Аввало, дунёдаги барча халқлар аралашдирлар, руслар ҳам қон аралаштириш фоизи ҳисобланса, славян бўлмаган халқ бўлиб чиқади. Яъни турки қавмларнинг барчаси туркидирлар, лекин унда турки қон даражаси турлича миқдорда бўлиши мумкин.


Қадимги турклар маданияти ўзига хос кўчманчи маданият бўлиб инсоният тарихида ўзининг алоҳида ўрнига эга эканлигини, оддий ўтов ўз архитектураси билан ўтроқ халқлар яраган иншоотлардан ҳеч қандай кам томони йўқ эканлигини исботлашга бел боғлаб, буни чиройли қилиб далиллаб бера олган Л.Н.Гумилёв, бу қарашларида маданиятнинг тил ва адабиёт каби узвий қисмига келганда, биров оқсайди ҳамда турки маданиятни камситиш йўлини тутганларнинг филологик материалларидан фойдаланиш зўрида қолади.

Биз турки тарихни инсоният тарихининг таркибий бир узви сифатида ўрганиб, бу қавмнинг башар олдидаги ўтаган вазифасини ҳалол ёритишга интилган ажойиб бир тарихчи олимнинг йирик бир асаридеги, бизнинг назаримизда, ўзбек ўқувчиси дунёқарашида чалқашликлар ва ноаниқлик келтириб чиқариши мумкин бўлган баъзи бир ўришари устида тўхталишимиз, қўлингиздаги китобнинг бизнинг узок ўтмишимизни ўрганишимиздаги аҳамиятини заррача ҳам қамайтира олмайди. Турк ҳоқонликлари даври тарихини ўрганишда, давлатчилигимиз тарихи ва тадрижини ўрганишда, «Қадимги турклар» асарининг олдида тушадиган бошқа бир илмий ишни тавсия эта олмаслигимизнинг ўзи бу ишнинг қийматини белгилаб қўяди.

Турк ҳоқонликлари тарихини Хитой, Эрон, Олд Осиё, Европа тарихи билан боғлаб ўрганиш билан бирга, уларни боғлаб турувчи ипларни топиб кўрсата билишнинг ўзи жуда катта илмий меҳнат ва иқтидор талаб этар эди. Бахтимизга, илмий заҳматлардан лаззатланиш ва илмий иқтидор ҳисси ва қобилияти ато этилган Л. Гумилев ана шу атоларини бизнинг тарихимизга қаратди. Ислом оламида ўз ўрнини топган турки қавм исломгача ҳам дунё тарихи майдонида ўзининг қаддини мағрур тута олганини кўрсатиб бера олди.

Китобда ўзбек халқи этногенезида турклар билан бир қаторда жуда катта аҳамият касб этган суғудлар (суғудларнинг ўзи, хоразмийлар, парканаликлар, саклар) форсларга нисбатан рухий, иқтисодий жуғрофий, ижтимоий жиҳатидан туркларга жуда яқин бўлганлиги, турк ҳоқонликлари сиёсий ва маънавий ҳаётида муҳим рол ўйнаганлиги ҳолисона очиб берилганки, «ўзбек халқи босиб келган кўчманчи туркларнинг мағлуб бўлган суғудлар билан аралашмаси» эмас, балки турклар билан бутун тарихи давомида бирон марта ҳам уруш қилмаган, аксинча ҳар қандай тажовузни асрлар давомида биргалиқда бартараф қилиб келган икки буюк қавмнинг—турксуғуд иттифоқининг маҳсули эканлигини намоён этиши билан ҳам қимматлидир.

Бу асарнинг яна бир қиймати кўчманчи маданият инсоният маданиятининг узвий ўзига хос бир бетакрор тармоғи бўлиб, башарий маданият ушбу маданиятсиз катта бир кемтикли бўлиб қолишининг илмий жиҳатдан асослаб берилганидир.



Lev Gumilev ikki taniqli rus shoiri — Nikolay Gumilyov bilan Anna Axmatova oilasida tugʻilgan. Nikolay Gumilyov 1921 yilda aksilinqilobiy isyonni tayyorlashda ayblanib, shoʻro tuzumi tomonidan qatl etilgan boʻlsa, Anna Axmatova ming bir tavqe laʼnat ostida yashasa-da uzoq umr kechirib, 77 yoshida — 1966 yilning 5 martida vafot etgan. Isyonchi ota va boʻysunmas onaga boʻlgan munosabat Lev Gumilyov hayoti va faoliyatiga bevosita taʼsir koʻrsatdi. U dastlab 1938 yilning martidan 1943 yilning martigacha siyosiy mahbuslar lagerida boʻldi, keyinchalik 1950 yilda 10 yilga ozodlikdan mahrum etilib, 1956 yilda Stalin shaxsini qoralagan XX sʼezdidan keyin erkinlikka chiqdi. U butun umri davomida siyosiy taʼqib ostida yashadi.

Ammo, ilmga bo'lgan tashnalik, ayniqsa, turkiylar tarixiga bo'lgan beqiyos qiziqish (onasi tomirida turkiy qon bo'lgani ta'sirida bo'lsa kerak), uzoq va mashaqqatli mehnat izlanishlar Lev Gumilyov nomini dunyo ilm ahli tomonidan tan olingan bilimli tarixshunos timsoliga aylantirdi.

Lev Gumilyov inson va etnoslarning biologik ijtimoiy mohiyati haqidagi ta'limot asoschisi; u fanda birinchi bo'lib etnogenezning nasldan-naslga o'tuvchi asosiy energetik belgisi passionarlik — biokimyoviy quvvat ortishi natijasida odamlardagi ongli biologik qobiliyatlarning nihoyat darajada kuchayishi g'oyasini ilgari surdi. Ushbu g'oyaga ko'ra, bunday jarayonlarning namoyon bo'lishi tarixiy taraqqiyotga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu g'oya uning 1979 yilda bir dona nusxada nashr etilgan «Etnogenez va Zamin biosferasi» («Etnogenez i biosfera Zemli») asarida bayon etiladi.

Lev Gumilyovning turkiylar tarixiga oid izlanishlari natijasida «Istoriya naroda Xunnu», «Xunnu v Kitae», «Drevnie tyurki», «Poiski vimishlennogo sarstva», «Drevnyaya Rus' i Velikaya step'», «Staroburyatskaya jivopis'», «Otkritie Xazarii», «Tisyacheletie vokrug Kaspiya», «Chernaya legenda», «Sinxroniya», «Konets i vnov' nachalo» kitoblari va sonsiz maqolalari paydo bo'ldi.

Yodimda: 80-yillarda biz yosh o'zbek ziyolilari kimdir Moskvadan olib kelgan «Etnogenez va Zamin biosferasi» («Etnogenez i biosfera Zemli») asarining litografik nusxasini navbatda turib o'qib chiqqan edik. Bu kitob mutolaasi katta bilim doirasini talab qilsa-da, uni to'la tushunmasak-da, kitobda keltirilgan turkiylar haqidagi tarixiy dalillar va voqealar bizni hayajonga solardi. Ayniqsa, «Drevnie tyurki» kitobini oylab, yillab kitob bozorlaridan

qidirib, uni har qanday narxda sotib olishga tayyor edik.

Mana, nihoyat, besh yilcha avval Lev Gumilevning «Qadimgi turkiylar» tarixiy mehnati (Tarjimon — Baxtiyor Isabekov) o'zbek tilida chop etildi. Ishonchimiz komilki, uning boshqa asarlari ham o'zbek tilida nashr etilajak. Bu bizning mas'uliyatimiz va istagimizga bog'liq. Bugun mustaqillik tufayli o'z xalqimiz tarixini chuqurroq o'rganib, bilib boryapmiz. Oldingidek faqat rus emas, jahon olimlarining kitoblarini ham mutolaa qilib, tadqiq etyapmiz. Mana shu o'zligimizni idrok etishda buyuk rus tarixchisining hissasi beqiyosdir, desak xato qilmaymiz. To'g'ri, uning hamma g'oyalari to'g'ri yoki bizga ma'qul emasdir. Ammo, uning asarlari diqqatimiz va mehrimizga sazovor bo'lganini tan olmasdan ilojimiz yo'q.

Xurshid Davron



Nabijon Boqiy

NIDOLARDAN YARALGAN TARIX

Shoirai zamonamiz Anna Andreevna Axmatova tarixiy fojialarni aks ettirgan she'rlaridan birida: «Erim go'rda, o'g'lim turmada — menga duo bering», deb iltijo qilgan edi. Chunki shoiraning faqat go'zal his-tuyg'ulari emas, balki nozik vujud ham zo'ravon zamonning poshnalari ostida ayovsiz toptaladi: eri Nikolay Gumilyovni 1921 yilda bol'sheviklar otib tashlaydi, o'g'li esa...

Levushka (arslon bolasi) 1912 yilning 1 oktyabr kuni tug'iladi. Onasi Anna endigina 23 yoshga to'lgan edi. Taqdir hazilini qarangki, Lev 23 yoshga to'lganda uni bol'sheviklar avaxtaga tashlaydi. 1935 yilning 22 oktyabr kuni Leningrad Davlat universitetining tarix fakul'tetida tahsil ko'rayotgan Lev Gumilyov «aksilsho'raviy terrorchilar guruhining a'zosi» sifatida hibsga olinadi. Milsiz azob-uqubatlardan so'ng Anna Axmatova Stalinga xat kiritishga erishadi va «dohiyning mehr-shafqati» bilan 1935 yilning 4 noyabr kuni Lev qamoqdan ozod bo'ladi.

1938 yilning 10 mart kuni esa Lev Gumilyov go'yoki «LDUdagi yoshlarning aksilsho'raviy tashkilotiga a'zo bo'lgani uchun» ikkinchi marta qamaladi. Leningrad harbiy okrugi tribunalining qaroriga muvofiq Lev Nikolaevich o'n yil muddatga ozodlikdan mahrum etiladi.

Ammo, «adolatparvarlik»ni ko'ringki, 1938 yilning 17 noyabr kuni SSSR Oliy sudining harbiy hay'ati o'sha hukmni bekor qilib, jinoiy ishni qayta tergovga jo'natadi. 1939 yilning fevral-may oylarida bo'lgan qayta tergov jarayonida Lev Gumilyov aybdor ekanini mutlaqo bo'yniga olmaydi, tergovchilar esa uning aybini isbotlay olmaydi, go'yo «inqilobiy vaziyat» vujudga keladi. Shunday bo'lsa-da, NKVD huzuridagi maxsus kengash qaroriga binoan Lev Gumilyov besh yil muddatga ozodlikdan benasib qilinadi.

Lev Gumilyov surgundan to'ppa-to'g'ri Ikkinchi jahon urushining qaynoq jabhasiga jo'nab ketadi. Urushda o'zini ko'rsatadi, bir necha marta taqdirlanadi. Lekin... lekin Nikolay Gumilyovning o'g'li bo'lish, Anna Axmatovaning o'g'li bo'lish nihoyatda og'ir edi...

1949 yilning 6 noyabr kuni (ataylab bayramdan bir kun avval!) tergovchi mayin-mayin kekiribgina Anna Axmatovaning xonadoniga tashrif buyuradi va: «Madam, uyingizni tintuv qilamiz. So'ngra o'g'lingizni qamoqqa olib ketamiz», deydiyu charm papkasidan orderni chiqarib ko'rsatadi. Tintuv boshlanadi. «Grajdanka Axmatova»ning shaxsiy buyumlari, latta-puttalari obdan titkilab ko'riladi. Xo'rlangan, haqoratlangan Anna Axmatovaning asab torlari chirs-chirs uziladi. Anavi go'rso'xtalar tilab-tilab olgan yolg'izgina o'g'lini oldilariga solib haydab ketishgach, shoira jamiki qo'lyozmalarini, hali e'lon qilinmagan she'rlarini, dostonlarini bitta qoldirmasdan yoqib yuboradi. Rus adabiyoti tarixida faqat Nikolay Gogol «O'lik jonlar» romanining qo'lyozmasini yoqib yuborgan. Axmatova «yong'in»i tarixda ikkinchi hodisa (naql qilishlaricha, qamoqqa olinishidan salgina oldin Abdulhamid Cho'lpon ham qo'lyozmalarini yoqib yuborgan ekan). Adiblarning qo'lyozmalardan boshqa yana qanday boyligi borki, qurbon qilishsa! Lev Gumilyov bu gal o'n yil muddatga ozodlikdan mahrum etiladi.

«Dohiy»ning 70 yillik yubilevi yaqinlasha boshlaydi. To'kilbginaga, abgorgina bo'lib qolgan Anna Axmatovaga «ba'zi bir o'rtoqlar do'stona» maslahat beradi: «Itimos, madhiya yozing! Axir, o'tmishda ham shoirlar podsholar nomiga qasidalar yozgan!» deyishib, yo'l-yo'riq ko'rsatadi... Axmatova umrida ilk bora ijodiy printsipidan chekinib, Stalinni madh etib ikkita she'r yozadi (o'sha she'rlari zudlik bilan «Ogonyok» jurnalida e'lon qilingan turkumiga ilakishib dunyo yuzini ko'radi). O'n-o'n besh yil mobaynida bitta ham she'ri sho'ro

matbuotida e'lon qilinmagan Axmatovaning turkumlari «Ogonyok» jurnalida ketma-ket potirlab chiqib ketganining boisi, albatta, «ijtimoiy zakaz» juda yuqoridan tushganini anglatadi.

Biroq, Stalin baribir Lev Gumilyovni ozodlikka chiqarmaydi. Anna Axmatova qamoqda yotgan o'g'liga posilkalar jo'natib, xatlar yozib turadi. Ajablanarli joyi shundaki, ona-bola o'rtasida ijodiy aloqa o'rnatiladi. Bunga keyinchalik saqlanib qolgan birgina maktubni dalil sifatida keltirishimiz mumkin. Xususan, 1954 yilning 20 sentyabr kuni Anna Axmatova fi-dokor o'g'liga bunday deb yozgan ekan: «Hozir mutolaa qilayotganim Xitoy she'riyat antalogiyasida yana-tag'in xunlarga duch kelib qoldim. Bu hodisa endi eramiz-ning I asrida ro'y beryapti. Ikkita xitoy generali xunlar tomonidan asirga olinadi va 19 yil tut-qunlikda saqlanadi. Bittasi Vataniga qaytib ketadi, boshqasi esa o'tmishini eslab qo'shiq aytib o'tiradi. O'sha qo'shiq ingliz tiliga tarjima qilingan, qofiyasi yo'q. Bilmadim, senga ilgari ham yozganmidim-yo'qmi, Pekinda 1954 yili inglizcha nashr qilingan Suy Yuanning kitobini o'qib chiqdim. Tarjimoni xitoylik ekan. Mana, mening nasriyroq tarjimam:

Podshohimga xizmat qilib,
Sahroni changitib yurib,
Xunlarning dodini berib —
Men o'n ming li yo'l bosdim.

Va hokazo. Antalogiyadan va tarjima qoralamasidan ko'chirmalar olib yuborayotgan xatlarim senga yetib boryaptimi? Ehtimol, ulardan senga umuman foyda yo'qdir?» (Anna Axmatova, Sochineniya v dvux tomah, tom 1, Moskva, iz-vo «Pravda», 1990 yil, 229-bet.) Boshqa bir xatida esa: «O'zingni asragin, achchiq choydan ichmagin», deb iltimos qiladi ona. Hoynahoy, «achchiq choy» deganda aristonlar orasida tansiq hisoblanadigan «chifir» nazarda tutilayotir. «Chifir» ham, «achchiq choy» ham oxir-oqibat yurakni ishdan chiqaradi (hatto otdek baquv-vat O. Balzak ham «achchiq qahva»dan o'ladi).

Qisqasi, Lev Gumilyov qamoqda yotgan vaqtda ham umr kitobi — «Qadimiy turklar» uchun qimmatli ma'lumotlar to'playdi. Onasi o'g'lining qutlug' ishida hamisha madadkor bo'ladi.

... «Qadimiy turklar» kitobida Birinchi (Sharqiy va Garbiy) hamda Ikkinchi turklar saltanatining paydo bo'lish zaruriyati, taraqqiyoti, inqiroz sabablari halol tadqiq etiladi.

Muallifning guvohlik berishicha: «Bu kitob 1935 yilning 5 dekabr kuni boshlangan edi.

O'shandan beri bir necha marta qayta ishlandi, to'ldirildi. Biroq, qadimiy turklar tarixiga aloqador jamiki boy manbalar to'la-to'kis qamrab olinmadi; barcha muammolar yoritildi deb bo'lmaydi. Shu bois bu yo'ldagi izlanishlar davom ettirilishi shart» (L. Gumilyov, «Qadimiy turklar», 3-bet. Bundan keyin ushbu kitobdan olingan dalil-dastaklar «Q. t.», falon bet deb ko'rsatiladi).

Kitob debochasida muallif «Bu kitobni bizning birodarlarimizga — Sho'ro Ittifoqidagi turk xalqlariga bag'ishpayman» deb qayd etadi. Bag'ishlov ham, kitob qachon yezila boshlangani to'g'risidagi ta'kid ham chuqur chog'ishtirma ma'noga ega. Tagmatn — «nimkosa» teran anglansa, muallifning (daf'atan g'alati tuyuladigan) fikr-mulohazalari, pozitsiyasi to'g'ri talqin qilinishi mumkin.

«Qadimiy turk xalqlarining, ular barpo etgan saltanatning tarixi dunyo kechmishi silsilasida bitta masalaga borib taqaladi: o'z nomlarini avlodlariga meros qilib qoldirmagan turklar nima uchun paydo bo'ldilar nima uchun yo'q bo'lib ketdilar?» («Q. t.», 4-bet.) Albatta, masalaning bu tarzda qo'yilishi ilmiy tadqiqot qamrab olgan davr uchun hech qanday zarar yetkazmaydi. Ilmiy tadqiqot doirasidan chiqilsa, hayratlanishimiz turgan gap: xo'sh, qadimiy turklar o'z nomlarini nima uchun avlodlarga (o'zbek-qozoq-qirg'iz-uyg'ur-qoraqalpoq-turkman...) meros qilib qoldirmagan ekan? Axir... Darrov bahs boshlamasdan «nimkosa»ga qarash kerak: bu kitob Lev Nikolaevich birinchi marta bol'sheviklar zindonida yotib chiqqach, rop-pa-rosa bir oydan so'ng yozila boshlangan. Shu sababli Lev Gumilyov «ezop tili»ni ilmiy muomalaga kiritadi: kitobini «Sho'ro ittifoqidagi turk xalqlariga» bag'ishlaydi-yu, ammo bir paytlar buyuk saltanat barpo etgan qadimiy turklar boshqa edi, hozirgilari boshqa — bular endi saltanat barpo qilishmaydi, ularga sho'ro saltanati ham bo'laveradi, deydi go'yo.

Biroq, kitobda yoritilgan 316 yillik tarixiy (yuzlab) misollardan ma'lum bo'ladiki, qadimiy turklar aslo yo'qolib ketmaydilar. To'g'ri, qudratli saltanatlar inqirozga yuz tutadi, lekin «turkyut» (izohi keyinroq beriladi) bo'lib tarix sahnasiga chiqib kelgan ajdodlarimiz goh «turk», goh «ko'k turk», goh «o'n o'q», goh «to'qqiz o'guz», goh «uyg'ur», goh «qorluq», goh «laqay», goh «qipchoq», goh «qirg'iz», goh «o'zbek» nomi bilan dunyoni titrataveradilar. Qadimiy turklar samandar misoli o't-olov ichida tug'iladilar va o't-olov ichra yashaydilar. «Qadimiy turklar insoniyat tarixida ulug' mavqega ega bo'lsalar-da, lekin o'zlari son jihatdan unchalik ko'p emasdi. Ularning saltanati Xitoy va Eron bilan chegaradosh bo'lib, bir-birlariga o'zaro ta'sir o'tkazardilar. Bu mamlakatlarning tarixi chambarchas bog'lanib ketgan. Demak, voqealar davriyligini haqqoniy tiklash uchun xorijiy mamlakatlar tarixini diqqat markazidan qochirishimiz lozim.

VI asr oxirlarida Turk qog'oonoti g'arbda Vizantiya (Rum), janubda Eron va hatto Hindiston, sharqda esa Xitoy bilan qo'shni bo'lgan. Tadqiqotimiz uchun mavzu qilib olingan davrda nomlari zikr qilingan mamlakatlarning tarixiy rishtalari Turk qog'oonoti taqdiriga uzviy bog'lanadi.

Turk qog'oonotining barpo etilishi insoniyat tarixida tub burilish yasadi. VI asrdan e'tiboran xitoyliklar Konstantinopol bozoridagi narxnavolar bilan hisoblashishga majbur bo'ldilar; rumliklar esa Xitoy imperatorining xazinasi bilan hisoblashishga majbur bo'ldilar. Turklar buyuk saltanatlar o'rtasida faqat vositachi bo'lib qolmadilar, ayni vaqtda ular Xitoy, Hindiston, Eron, Rum madaniyatlari bilan bemaol bellasha oladigan milliy qad-riyatlarini yaratdilar. Qadimiy turklarning qadriyatlarini bir taraf-u, lekin ular qurgan jamiyat, ijtimoiy usturmalar, mansab zina-poyalari, harb san'ati, diplomatiya, shuningdek, mamlakat manfaatiga bo'ysundirilgan milliy mafkura tadqiqotchini ko'proq hayratga soladi»

(«Q. t.», 415-betlar).

Kitobning birinchi qismi «arafa»dan (420-546 yillar) boshlanadi. Arafâ 126 yil davom etadi. «Mamlakat daho farzandlariga juda uzoq

muddat homilador bo'ldi» (Belinskiy ta'бири), deydilar. Ma'lum bo'lishicha, dunyo buyuk saltanatga ham uzoq muddat homilador bo'lar ekan. Sirtidan qaralsa, «arafa» xiyla cho'zilib ket-gandek tuyuladi. Lekin V asrda Ovrupoda millatlar hamon «ko'chmanchilik» qilib yurishganini e'tiborga olsak bormi, osiyoliklar ulardan 100 yil ilgari ketgani ravshan bo'ldi.

Arafa zoe ketmaydi. Jujon xalqi arafada tarkib topadi.

«Jujon xalqi qanday paydo bo'ldi degan masala avval ham bir necha marta ko'tarilgan-u, ammo uzil-kesil yechimini topgani yo'q. Bizningcha, masalaning bu tarzda qo'yilishi noto'g'ri. Aslida, «qanday — tarkib topdi?» tarzida qo'yilsa, to'g'ri bo'lardi. Xalq birdan paydo bo'lmaydi, asta-sekin shakl-shamoyil kasb etadi. Jujonlar xalq bo'lib bitta elatdan o'sib chiqqan emas, o'ziga xos ravishda tarkib topgan. Alg'ov-dalg'ov zamonlarda yo'ldan ozgan, yomonotliq bo'lib qolgan odamlar ko'payib ketadi. IV asrning o'rtalarida ham o'shanday kimsalar anchagina edi.

Ular Tobos xoni qarorgo-hida yoki xunlarning poytaxtida kun ko'rolmasdan cho'lu biyobonlarga bosh olib ketadilar. Xo'jayinlarining zulmidan zada bo'lgan xizmatkorlar, harbiy xizmatdan bo'yin tovlagan qochoqlar, talonga tushgan qishloqlarning aholisi ham sahroga chekinib jon saqlaydilar. Bunday kishilarning tili, dini, elati har xil edi-yu, faqat qismati bitta edi.

Hammasi qashshoqlikka mahkum bo'lib, mana shu qashshoqlik ularni birlashtirib turardi.

Xunlarning o'tliq askarlari safida xizmat qilgan Yukyo'l degan kimsa IV asrning 50-yillarida negadir o'lim jazosiga hukm qilinadi. Ammo u payt poylab turib toqqa qochadi va atrofiga o'ziga o'xshagan qochoqlardan yuztasini to'playdi. Ular bir iloj qilib ko'chmanchilar bilan til topishadi. So'ng bahamjihat hayot kechira boshlaydilar.

Yukyo'ning vorisi Qo'yluq Tobos xoni bilan aloqa o'rnatadi. Unga o'lpon (ot, suvsar, suvmushuk mo'ynasi kaoi) to'lab turadi. Bora-bora Qo'yluq o'rdasi Jujon nomini oladi. O'rda qonun-qoidasi urush ehtiyojlariga, talonchilikka mos edi: qahramonlik ko'rsatgan askarga qo'lga kiritilgan o'ljaning katta qismi hadya qilinardi, qo'rtoq kimsalar esa o'lasi qilib tayoq bilan savalanardi. 200 yillik o'tgan davr mobaynida jujonlar o'rdasida hech qanday sezilarli taraqqiyot bo'lmaydi. Mavjud kuch faqat talon-tarojlikka sarflanardi» («Q.t.», 11-12-betlar).

545 yilda jujonlar turkyutlarni bosib oladi. Turkyutlar esa yabgu-yapu (unvon — N. B.) yetakchiligida jujonlarga qarshi qo'zgon ko'tardi. 552 yilda qo'zgon ayni avj olgan kezlarda yabgu-yapu halok bo'ldi. Qora Issiqxon yabgu-yapu taxtiga chiqadi va 553 yilda jujonlarni tormor qiladi. Afsuski, o'zi ham qurbon bo'ldi. Og'asining o'rmini egal-lagan Mug'onxon 553 yildayoq jujonlarning qolgan-qutganini turkyutlar vatanidan haydab soladi...

Shu tarzda turkyutlar dunyo tarixi sahnasiga g'olibona kirib boradilar. O'sha yillari Buyuk turk qog'oonotiga asos qo'yiladi.



Abduqayum Ayritomiy,

Baxtiyor O'rdabekli

XALQIMIZNING QADIM TARIXI L.N. GUMILYOV TALQINIDA

L.N.Gumilyovning «Qadimgi turklar» asari XX asrning ikkinchi yarmida, ya'ni turki qavmlar tarixiga Yevropada qiziqish to'liq hali o'z epkinini mutlaqo yo'qotib bo'lmagan bir chog'da dunyo yuzini ko'rdi. Butun XIX yuzillik davomida turki xalqlar tarixi turki olimlar ishtirokisiz o'rganilgan, bu xalqlar vakillari o'z tarixini ilmiy yoritish maydonidan yiroqda bo'lganligi bois ham Ovrupo va rus tarix fani xodimlari uni o'zlarining sharq tarixini bilish saviyasi darajasida hamda o'z siyosiy-ijtimoiy qarashlariga uyg'un tarzda ochib berishlari tabiiy edi. XX yuzillikda tarix ilmining turki xalqlar o'tmishi maydoniga usmonli turk va tatar olimlari ham kirib kela boshladilarki, ular avvalgilardan farq qilib, turki tarixga, tabiiyki, ona tarix sifatida yondosha boshladilar. Endi bular oldingilaridan farq qilib, mazkur tarixga uzokdan, sovuq ilmiy tahlil muddaosidan yoxud o'z millatining siyosiy-ijtimoiy manfaatidan kelib chiqib emas, balki o'zining kechmishiga ilmiy ko'z bilan qaramoqzaruratida va ishtiyorida edilar.

Bu borada o'z xalqining kelib chiqish jihatidan ugor-turk birligiga bog'lagan mojar (ungar-venger) olimi Herman Vamberi alohida o'rin tutadi. Afsuski, XIX asr oxiri va XX yuz yillik boshlarining juda ko'p rus va rus-sovet olimlari kabi L.N.Gumilev ham Vamberining ilmiy ishlarini chetlab o'tadi. Bu holat L.Gumilevning hamma zamonlarning ulug' sharqshunoslaridan hisoblanmish V.V.Bartoldning ilmiy qarashlariga ham e'tiborsizligi, aniqrog'i, biroz mensimaslik kayfiyati bilan birga, Basim Atalay, Zaki Validiy ilmiy asarlariga mutlaqo e'tibor bermaslik kabi ilmiy yo'lni tanlashiga olib keldi. V.Bartold qadimgi turk tarixini boshqa ijtimoiy fanlardan ajralgan holda o'rganish mumkin emas deb hisoblagan, xususan, tarixchi ayni chog'da yaxshigina filolog-poliglot bo'lishini talab etgan bo'lsa, L.Gumilev o'z ustoz G.YE.Grumm-Grjimaylo bilan birgalikda tarixiy geografiyani, tarixni, xususan turk tarixini tiklashda yetarli yondosh soha sifatida qabul qiladilar. L.Gumilevning bu boradagi fikri qo'lingizdagi kitobning «Umumiy ishlar metodikasi» bo'limidagi «XIX asr oxirida to'rt tilda bir-biriga zid ko'plab ilmiy adabiyotlar yaratildi, bu asarlar boshlovchi tadqiqotchilar qo'lga yetishi va ularni idrok etishi qiyin edi... Tabiiyki, boshlovchi tarixchi turklar haqida yozilgan barcha kitoblarni o'qib chiqq olmaydi. Uning oldida yagona yo'l bor — mavzuni toraytirish...» deyilgan gaplarida ham aks etadi. Ya'ni filologik ma'lumot zarurligi inkor etilgach, umuman mavzuga oid barcha ilmiy adabiyotlarni o'rganish

zarurati ham cheklanadi.

Filologik manbalarga e'tiborsizlik natijasi bo'lsa kerakki, L.Gumilev ham o'sha zamonlarda, hatto hozirda ham keng tarqalgan «Ashina» so'zi «bo'ri» degan ma'noni ifoda etuvchi mo'g'ul so'zi bo'lib, mo'g'ulcha ko'rinishi «shane//chino»dir, «A» esa xitoycha hurmatni ifoda etuvchi old qo'shimchadir» degan farazni hech ikkilanmay qabul qiladi. Bir tildagi so'zga ikkinchi tildagi grammatik shakl ko'shilib yangi shakl hosil qilishi uchun o'sha shakl hosil qilingan til muhitida juda bo'lmaganda, aholining katta qismi ikkittilli bo'lishi zarurligini e'tibordan soqit qiladi hamda bu fakt uning turk davlat qurilishi zaminida mo'g'ul qabilalari turadi, degan qarashiga uyg'un bo'lganligi uchun ham

bunday qarashni dadil olg'a suradi va «Ashina»ning ma'nosi «oliyanob bo'ri» deb beradi. Aslida, xitoy manbalaridagi «Ashina» so'zini turki saltanat bo'lmish Kushan davlati nomi bilan, ya'ni «Qushan» eng qadimgi turki «bo'ri» tushunchasini ifoda etuvchi so'z bilan bog'lab tushuntirish ilmiy jihatdan asosli ko'rinadi (bu so'z bilan bir o'zakdosh bo'lgan «qashqir» so'zi hali qo'pgina turki tillarda saklanib kelmoqda).

L.Gumilev turki tarixni mo'g'ullashtirishda davom etib, xitoy manbalarida «Ashina xonlari qo'l ostidagilarni ifoda etish uchun ishlatilgan «tu-kyu»so'zida «turkut» so'zini ko'radi va undagi-ut qo'shimchasini esa, mo'g'ulcha ko'plik qo'shimchasi, deb ishonadi va ishonitirishga urinadi. Hatto, qadimgi turk tilida barcha siyosiy atamalar mo'g'ul tilidagi ko'plik qo'shimchasi bilan yasalgan, degan isbotlanmagan qoidani o'rtaga tashlaydi. Turkut so'zi tarkibidagi-t(-u/t)ni qat'iy turib, mo'g'ul tili qo'shimchasi deyish bilan L. Gumilev V.Bartoldning uning ilmiy ishlaridagi xatolar zaminini to'g'ri ko'rsatganini isbot ham qilib qo'ygan edi. Ya'ni Gumilev o'z zamonasida e'lon etilgan V.V.Radlovning «Turki lahjalar lug'ati tuzish tajribalari «(keyinroq «Qadimgi turk lug'ati» nomi bilan ham nashr etilgan)dan bexabarligini ko'rsatib qo'ydi. O'sha lug'atda -t qo'shimchasi qadimgi turki tilda mavhum tushunchali ot yasashi aytilgan va bunga misollar ham berilgan. Buning ustiga agar L.Gumilevda filologik ma'lumot yetarli bo'lganida turki tillarda etnonimlar ko'plik qo'shimchasi bilan yasalmasligini, chunki bu tilda etnonim jamlovchi ma'noga ega ekanligini payqagan bo'lar edi. Hozirgi turki tillarda uchraydigan o'zbeklar, qozoqlar, ruslar kabi forma yasalishi ham turki tillarga hind-yevropa tillari ta'siri natijasidir. Hatto hozir ham «o'zbeklar bunaqa bo'lmaydi»dan ko'ra «o'zbek bunaqa bo'lmaydi» turkiroqdir. Demak, «turkut» shakli mavjud bo'lganida ham undagi -t(-ut) mo'g'ulcha ko'plik qo'shimchasi emas, balki «boshqird» etnonimidagi kabi mavjud etnonimga qo'shilgan holda umumlashma ma'no berishi mumkin. Mo'g'ul tillarida esa, -t etnonim yasashi mavjud bo'lgan til hodisasidir: oyrot, kerait, tangut, taychjiut kabi. «Turkut» so'zida etnonim -k vositasida yasalgani esa o'sha paytlardayoq isbot etilgan bo'lib, qo'lingizdagi kitobda L. Gumilevning o'zi buni tan oladi.

Tarixan o'zidan hujjatlar qoldirgan dastlabki turki davlat bo'lmish Turk hoqonliklarini va uning asosiy bunyodkori turkilar bilan ilk turki xalq va davlat bo'lmish xunlar va ularning imperatorligi orasidagi bog'lanishni ham yo'qqa chiqaradi: «Turklar o'z tarixini olamning boshlanishidan hisoblasalar-da, ularning dunyoqarashidan kelib chiqilsa, bu dunyo uncha qadimiy emas. Olamning ibtidosi VI asr boshlaridir. Turkular o'z ajdodlari xunlar haqida hech narsa bilmas edilar.» Bu fikr juda asossiz bo'lmasa ham, unda turklar o'z o'tmishidan mutlaqo uzilgan bir qavm sifatida namoyon etiladi. Bu faraz to'laligicha O'rxo'n bitiklari matniga tayanganligi uchun, matn esa olamning yaralishi yoki turklarning tarixiga emas, balki bir turki sulola tarixiga bag'ishlangani uchun bunday keskin xulosaga ishonging kelmaydi. Xitoycha matnda turklar xunlarning avlodi ekanligi qayd etilgan ekan, demak loaqal xitoy madaniyati asosida ta'lim olganlar yoxud xitoycha matni o'qiy oladigan oddiy turk xunlar haqida qandaydir ma'lumotga ega bo'lgan, degan ishonchga asos bor bo'ladi, matnda esa, buni aks ettirish uchun ehtiyoj bo'lmagan bo'lsa kerak. Bizningcha, bu o'rinda boshqa bir noaniqlik ham borgan o'xshaydi, ya'ni xitoylar «xun» deb atagan ajdodlarimizni o'sha zamondagi turklar ham xun deb ataganmikanlar?!

Gap buyuk turkchi olim L.N.Gumilevning, bizning nazarimizda, turki tarixni o'rganishda turk filologiyasiga e'tiborsizligi natijasida yo'l qo'ygan ayrim kamchiliklari haqida ketayotgan ekan, uning «yada» toshi va u bilan bog'liq bo'lgan fikrini ham chetlab o'tib bo'lmaydi. «YADU» so'zining o'zi fors tilidan o'zlashtirilgandir. Garchi Eronda «shaman» so'zi noma'lum bo'lmasa ham, Firdavsiy turk sehrganini aynan o'sha so'z bilan ataydi.»

Avvalo, yadaso'zini hech ikkilanmay fors so'zi deyish, bu so'z va ushbu so'z ifoda etadigan diniy amal tarixlarini atrofficha o'rganilmay xulosa chikarishga olib kelingan. Fors tilida bu so'z boshka forsiy so'zlar bilan bog'lanishi mutlaqo mumkin bo'lmagani holda, «Devonu lug'atit turk»da o'qiyimiz: «YAT»-yomir va shamol keltirish uchun toshlar bilan qilinadigan fusungarlik». Shuning bilan birga turki tilda «ya»-o'zagidan tarkagan va ma'nosi yada so'ziga uyg'un bo'lgan birmuncha so'zlar borki, ular bu so'z turki ekanligini tasdiqlab turadi.

Jumladan, mazkur lug'atda yatlati so'zi afsun o'qish ma'nosiga ega ekanligi qayd etilgan.

Yatlati esa «fol ochtirdi» ma'nosiga egaligi aytiladi. Davomida yatchi so'zi keltirilib, uning «afsun o'qiydigan kishi» ma'nosini ifoda etishi tasdiqlanadi. O'zbek tilida uchraydigan «yotig'i bilan tushuntir» iborasidagi yotiq ham ushbu siraga kelib qo'shiladi. Bundan tashqari, tabiat jismlarini ilohiylashtirish eronlarga nisbatan ko'proq turkilarga xosdir. Fors manbalari ham bir ovozdan yada toshi ga uning vositasida bajarshadigan diniy tadbirlar to'laligicha turklarga xos deb hisoblaydilar. Umuman, «bitik»ni xitoy tilidan (V.V.Radlov kabi til bilimdoni turki tidda biti-fe'l o'zagi bor bo'lishiga ham qaramay, bu «madaniy so'z» xitoychadan o'zlashgan bo'lishini o'tkazmoqchi bo'lgan), ho'kiz —»madaniy so'z»ni fors tilidan, savat so'zini ham turki tilda sap- «biriktirmoq», to'qimoq» fe'l turkunli so'zi bo'lishiga qaramay, fors tilidan o'zlashtirilgan deb hisoblashlari turki «madaniy so'z»larning barchasi boshqa tillardan qabul qilingan, degan noto'g'ri va g'ayri ilmiy qarash ta'siridan boshqa narsa emas edi.

«Qadimgi turklar» kitobini o'qishda ehtiyot bo'lib yondoshish lozim bo'lgan g'oyalardan biri bu «qadimgi turklar son jihatidan juda kam bo'lib, o'z nomlarini bevosita avlodlari bo'lmagan ko'pgina qavmlarga qoldirdi» degan fikrdir. Avvalo, dunyodagi barcha xalqlar aralashdilar, ruslar ham qon aralashish foizi hisoblansa, slavyan bo'lmagan xalq bo'lib chiqadi. Ya'ni turki qavmlarning barchasi turkidirlar, lekin unda turki qon darajasi turlicha miqdorda bo'lishi mumkin.

Qadimgi turklar madaniyati o'ziga xos ko'chmanchi madaniyat bo'lib insoniyat tarixida o'zining alohida o'rniga ega ekanligini, oddiy o'tov o'z arxitekturasi bilan o'troq xalqlar yaraggan inshootlardan hech qanday kam tomoni yo'q ekanligini isbotlashga bel bog'lab, buni chiroyli qilib dalillab bera olgan L.N.Gumilyov, bu qarashlarida madaniyatning til va adabiyot kabi uzviy qismiga kelganda, biroz oqsaydi hamda turki madaniyatni kamsitish yo'lini tutganlarning filologik materiallaridan foydalanish zo'rida qoladi.

Biz turki tarixni insoniyat tarixining tarkibiy bir uzvi sifatida o'rganib, bu qavmning bashar oldidagi o'tagan vazifasini halol yoritishga intilgan ajoyib bir tarixchi olimning yirik bir asaridagi, bizning nazarimizda, o'zbek o'kuvchisi dunyoqarashida chalkashliklar va noaniqlik keltirib chikarishi mumkin bo'lgan ba'zi bir o'rishari ustida to'xtalishimiz, qo'lingizdagi kitobning bizning uzoq o'tmishimizni o'rganishimizdagi ahamiyatini zarracha ham kamaytira olmaydi. Turk hoqonliklari davri tarixini o'rganishda, davlatchiligimiz tarixi va tadrjini o'rganishda, «Qadimgi turklar» asarining oldiga tushadigan boshqa bir ilmiy ishni tavsia eta olmasligimizning o'zi bu ishning qiymatini belgilab qo'yadi.

Turk hoqonliklari tarixini Xitoy, Eron, Old Osiyo, Yevropa tarixi bilan bog'lab o'rganish bilan birga, ularni bog'lab turuvchi iplarni topib

qo'rsata bilishning o'zi juda katta ilmiy mehnat va iqqidor talab etar edi. Baxtimizga, ilmiy zahmatlardan lazzatlanish va ilmiy iqtidor hissi va qobshiyati ato etilgan L. Gumilev ana shu atolarini bizning tariximizga qaratdi. Islom olamida o'z o'mini topgan turki qavm islomgacha ham dunyo tarixi maydonida o'zining qaddini mag'rur tuta olganini ko'rsatib bera oldi.

Kitobda o'zbek xalqi etnogenezida turklar bilan bir qatorda juda katta ahamiyat kasb etgan sug'udlar (sug'udlarning o'zi, xorazmiylar, parkanaliklar, saklar) forslarga nisbatan ruhiy, iqtisodiy jug'rofiy, ijtimoiy jihatidan turklarga juda yaqin bo'lganligi, turk hoqonliklari siyosiy va ma'naviy hayotida muhim rol o'ynaganligi xolisona ochib berilganki, «o'zbek xalqi bosib kelgan ko'chmanchi turklarning mag'lub bo'lgan sug'udlar bilan aralashmasi» emas, balki turklar bilan butun tarixi davomida biron marta ham urush qilmagan, aksincha har qanday tajovuzni asrlar davomida birgalikda bartaraf qilib kelgan ikki buyuk qavmning—turksug'ud ittifoqining mahsuli ekanligini namoyon etishi bilan ham qimmatlidir.

Bu asarning yana bir qiymati ko'chmanchi madaniyat insoniyat madaniyatining uzviy o'ziga xos bir betakror tarmog'i bo'lib, bashariy madaniyat ushbu madaniyatsiz katta bir kemtikli bo'lib qolishining ilmiy jihatdan asoslab berilganidadir.

O'xshash maqolalar:

- [Nabijon Boqiy. Anvar poshoning vasiyati. Hujjatli romandan boblar.](#)
- [Rauf Parfi hayoti va ijodiga bag'ishlangan esse va maqolalar.](#)
- [Xurshid Davron. Uch kitob: 1. «Samarqand xayoli». 2. «Sohibqiron nabirasi». 3. Shahidlar shohi \(Najmiddin Kubro tushlari\).](#)
- [Xurshid Davron. Bu minorlar — bizning qaddimiz. She'rlar.](#)
- [Nabijon Boqiy. Zohir A'lami eslab.](#)
- [Leonardo da Vinchi. Hikmatlar.](#)

Teglar: [Abduqayum Ayritomiy](#), [Baxtiyor O'rdabekli](#), [Lev Gumilyov](#), [Nabijon Boqiy](#), [Xurshid Davron](#)

[Usmon Azim. Uch hikoya.](#)

[Л. Н. Гумилёв. Автонекролог / Почему он выбрал Авеля?](#)

Izoh qoldiring

Ism

E-mail (sir saqlanadi)

Sayt

Izoh qoldirish

• Sayt bo'limlari

- [Adib hayoti va ijodi](#)
 - [Adib haqida](#)
 - [Adib kitoblari](#)
 - [Hikoya, qissa, drama](#)
 - [Kundalik sahifalaridan](#)
 - [Maqola, esse, suhbat](#)
 - [She'r va doston](#)
 - [Tarjimalar](#)
- [Audio va video](#)
- [Davomli maktublar](#)
- [Hikmat va rivoyat](#)
- [Kutubxona](#)
 - [Alisher Navoiy hayoti va ijodi](#)

- [Islom tarixi, adabiyoti va madaniyati](#)
- [Jadidchilik tarixi va siymolari faoliyati](#)
- [Jahon tarixi, adabiyoti va madaniyati](#)
- [O'zbek tarixi, adabiyoti va madaniyati](#)
- [Ruscha matnlar \(Тексты на русском\)](#)
- [Tarixiy hujjatlar, qo'lyozmalar](#)
- [Tasavvuf tarixi va adabiyoti](#)
- [Turkiy tarix, adabiyot va madaniyat](#)
- [Yosh tarjimonga tavsiya](#)
- [Mening avlodim](#)
- [Xotira, yodnoma](#)
- [Yangiliklar](#)
 - [Muborak kun](#)
 - [Taqdimot](#)
 - [Tarixiy sana](#)

• Eng so'nggi

- [Yahyo G'ulomov. Xorazmning sug'orilish tarixi & Яхья Гулямов. Памятники города Хивы](#)
- [Erkin A'zam «Hammasi hayot haqida» ko'rsatuvida.](#)
- [Iqbol Mirzo. She'rlar.](#)
- [2014 yil may oyidagi madaniyat, san'at va adabiyot sohasida sanalar taqvim.](#)
- [Umud Bekmuhammad. Qolipni yorgan fikrlar.](#)
- [Nodira Afoqova. Xemingueyning dolg'ali hayoti.](#)
- [Franchesko Petrarka. She'rlar.](#)
- [Qayta tiklangan kitob.](#)
- [Georg Handelning «Amir Temur» operasi / Образ Амира Темура в сценических произведениях Запада & Георг Гендель. «Тамерлан». Видео.](#)
- [Азат Ахунов. Звезда Исмаила Гаспринского // Татарский мир, 2014](#)
- [Yaroslav Gashek. Hikoyalar.](#)
- [Zebo Rahimova. Seni sog'indim. «Jo'natilmagan maktublar» turkumidan.](#)
- [Nurulloh Muhammad Raufxon. Ruhimiz bir bo'lsin.](#)
- [Pablo Neruda. She'rlar.](#)
- [Николя Бонналь. Жюль Верн — «защитник русского Туркестана».](#)
- [Salmon Hirotiy. She'rlar.](#)

• Bizni kuzatib boring



Yangiliklarimizga yoziling

E-mail:

[+ Добавить на Яндекс](#)

Do'stlarimiz

iHerb.com
Natural Products & More

Лучшие цены !

**Покупай без
Посредников !**

Доставка от 4 до 6\$

При первом заказе 5 \$

в подарок !

**Спортивное питание,
Косметика, Товары для
здоровья и многое
другое**

Код скидки: HTT268

iHerb.com

• Eng ko'p o'qilgan

[Lolaqizg'aldoq. Shavkat Rahmon xotirasiga. Muhammad Yusuf she'ri](#) : Ўзбекистон халқ шоири Муҳаммад Юсуфнинг "Лолақизг'...

[Muhammad Yusuf. Shoir hayoti va ijodiga bag'ishlangan hujjatli film](#) : Фильм Ўзбекистон халқ шоири Муҳаммад Юсуф таваллуд...

[Xurshid Davron. Samarqand xayoli — Tarixiy va ma'rifiy qissa va badialar.](#) : Tarixiy va ma'rifiy badialar 'Kamalak' nashriyoti T...

[П. Алексеенков. Кокандская автономия.](#) : П. Алексеенков. Кокандская автономия. Ташкент., Узгиз....

[Xurshid Davron. Amir Temur o'g'lining o'limi haqida rivoyat.](#) : Sohirqiron qal'ani buzib tashlashni , cholga bo'lsa n...

[Bahodir Yo'ldoshev: Spektakl olqish uchun qo'yilmaydi.](#) : Таникли режиссёр Баходир Йўлдошев билан мени узок...

[Taniqli adib Zohir A'lam vafot etdi.](#) : Бугун таникли ёзувчи Зоҳир Аълам 71 ёшида вафот этди...

[Обладателем Гран-при II Международного конкурса вокалистов имени Магомаева стал бас-баритон](#)

[Женисбек Пиязов из Узбекистана.](#) : Ўзбекистонлик қорақалпоқ йигити Женисбек Пиязов — гра...

[Sergey Tolstov. Qadimiy Xorazm siviliztsiyasini izlab.](#) : Сергей Толстов. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб....

• Teglar

[Abdulhamid Cho'lpon](#) [Abdulla Oripov](#) [Abdulla Qodiriy](#) [Abdurauf Fitrat](#) [Ahmad A'zam](#) [Alisher Navoiy](#) [Amir Temur](#) [Asqad Muxtor](#) [BBC Buxoro](#) [Chingiz Avtmatov](#) [Erkin A'zam](#) [Erkin Vohidov](#) [Eshqobil Shukur](#) [Faxrivor hikmatlar](#) [Ibrohim Haqqul](#) [islom Mahmudxoja Behbudiy](#) [Mavlono Jaloliddin Rumiy](#) [Mirzo Bobur](#) [Mirzo Ulug'bek](#) [Murod Muhammad Do'st](#) [musiq](#) [Nabijon Boqiy](#) [Naim Karimov](#) [Nazar Eshonqul o'zbek mumtoz she'riyati](#) [Odil Ikrom](#) [Odil Yoqubov](#) [Oybek](#) [Rauf Parfi](#) [rus bosqini](#) [Samarqand](#) [Shavkat Rahmon](#) [Shukur Xolmirzayev](#) [tasavvuf](#) [Ulug'bek Hamdam](#) [Umid Bekmuhammad](#) [Usmon Azim](#) [xotira](#) [Xurshid Davron](#) [Xurshid Do'stmuhammad](#) [XX asr o'zbek she'riyati](#) [Yalqun Azizi](#)

• Saytimiz arxivi

- [2014](#)
- [2013](#)
- [2012](#)
- [2011](#)
- [2010](#)

[Tepaga RSS](#) [Bosh sahifa](#)

Xurshid Davron (Khurshid Davron) kutubxonasi (c) 2007 - 2014

